

1	Mahsulot toifasi	Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun
2	Mahsulot turi	Kredit
3	Sohalar (tarmoqlar)	Risk tomonidan taqiqlangan tarmoqlardan tashqari barcha tarmoqlar
4	Kredit mahsuloti: yangi yoki mavjud	Mavjud
5	Mahsulot nomi	Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun
6	Mahsulot kodi	MSE-1
7	Mijoz segmenti	Mikro va kichik biznes
8	Kredit risk segmenti	RetailEnterprise
9	Mijozlar turi	Yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar
10	Mijoz	ETBc (Bankning mavjud mijoz) / KBBc (Bankka ma'lum mijoz) / NTBc (Bank uchun yangi mijoz)
11	Mijozlarni aniqlash	1) ETBc (Bankning mavjud mijoz): Mijoz Bank uchun mavjud mijoz deb hisoblanadi, agar ko'rib chiqish sanasidan oldingi oxirgi 12 oy davomida kamida 6 oy u bilan faol kredit munosabatlari mavjud bo'lgan bo'lsa. Kredit munosabatlari, agar foydalanilgan bitim (shartnoma asosida) 100% pul mablag'lari bilan ta'minlanmagan bo'lsa, faol deb hisoblanadi; 2) KBBc (Bankka ma'lum mijoz): Bankda joriy hisobvaraqa kamida 6 oy oldin ochilgan mijoz; 3) NTBc (Bank uchun yangi mijoz): KBB yoki ETB toifalariga kirmaydigan mijoz
12	Start up	Ko'zda tutilmagan
13	Mijoz limiti	1) Yuridik shaxslarga - oxirgi hisobot davri uchun (forma-2) moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning 010 satrida ko'rsatilgan sof tushumidan kelib chiqib 60% miqdorigacha; 2) Yakka tartibdagi tadbirkorlarga - oxirgi 12 oylik bankdagi hisobvaraqa aylanmasining 60% miqdorigacha (yoki/agar 6-12 oy faoliyat yuritayotgan bo'lsa, shu davrdagi amaldagi bank hisobvaraqa aylanmasining 60 foizigacha); 3) Bozor hududida yoki Savdo-ko'ngilochar markazlarda (TPL) faoliyat olib borayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga - mijozning faoliyat joyiga tashrif buyurib, haqiqatda oxirgi 12 oylik mavjud aylanmasidan kelib chiqib 60% miqdorigacha. <i>Mijozning jami majburiyatlari mazkur summalardan oshmasligi lozim</i>
14	Boshqa talablar	Bozor hududida yoki Savdo-ko'ngilochar markazlarda (TPL) faoliyat olib borayotgan YaTTlar bo'yicha — egalik huquqini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilishi talab etiladi. Agar savdo joyi ijara asosida bo'lsa, bozor bilan savdo joyini ijaraga olish bo'yicha amaldagi shartnoma hamda ushbu savdo joyi uchun so'nggi 6 oy davomida amalga oshirilgan ijara to'lovlarini tasdiqlovchi hujjatlar (to'lov kvitansiyalari, tranzaksiya ma'lumotlari yoki boshqalar) taqdim etilishi talab etiladi
15	Kredit maqsadi	Aylanma mablag'larni to'ldirish maqsadida tovarlar (<i>ishlar, xizmatlar</i>) sotib olish va ish haqi to'lovi uchun
16	Mahsulot limiti	Mijoz loyihasidan kelib chiqib belgilanadi
17	Kredit maksimal summasi	1) Yuridik shaxslar uchun - 2 000,0 mln.so'mgacha (Ish haqi to'lovi uchun - Ikki oy uchun hisoblangan ish haqidan ortiq bo'lmagan miqdorda); 2) Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun (naqdsiz) - 1 000,0 mln.so'mgacha; 3) Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun (naqd pulda) - 650,0 mln.so'mgacha
18	Kredit minimal summasi	1) Yuridik shaxslar uchun - 50,0 mln.so'm; 2) Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun - 25,0 mln.so'm
19	Valyuta	Milliy valyutada
20	Kredit liniyasi	Yopiq
21	Kredit maksimal muddati	36 oygacha (<i>ish xaqi to'lovi uchun 45 kungacha</i>)
22	Kredit minimal muddati	O'rnatilmagan
23	Boshlang'ich badal	-
24	Kreditning ta'minlanganligi (%)	Kamida 125%
25	Kredit ta'minoti	Ko'chmas mulk va transport vositasi
26	Monitoring o'tkazish davriyligi	Amaldagi Kredit siyosati va Kreditlash Nizomi asosida amalga oshiriladi
27	Shartnoma shartlari bajarilmaganda jarimalar	Amaldagi Kredit siyosati, Kreditlash Nizomi va kredit shartnomasi asosida amalga oshiriladi 1) Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda (muddati o'tgan kredit), Qarz oluvchi Bankka asosiy qarzni muddati o'tgan qismiga butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foiz stavkasining 1,2 baravari miqdorida (Yuqori foiz stavkasi) foiz to'laydi; 2) Foizlarni belgilangan muddatda to'lamaganlik va ular bo'yicha muddati o'tgan summalar vujudga kelgani uchun Qarz oluvchi Bankka kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 15 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi; 3) Qarz oluvchi kredit mablag'laridan maqsadsiz foydalansa, Bankka maqsadsiz foydalangan kredit summasining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi
28	Kredit foiz to'lovini qaytarish tartibi	Har oyda (<i>Ish xaqi uchun kreditlarda muddatining oxirida to'lanadi</i>)
29	Kredit foizi (%)	Yillik 27%
30	Kredit ajratilish shakli	1) Yetkazib beruvchining hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan. Bir martalik yoki bosqichma-bosqich o'tkazish sharti bilan; 2) Naqd pulda yakka tartibdagi tadbirkorlarga ularning so'roviga asosan, belgilangan naqd pul limiti doirasida (650,0 mln so'mgacha); 3) Mijoz so'roviga asosan aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 350,0 mln.so'mgacha bo'lgan kredit mablag'lari mijozning Bankdagi talab qilib olinguncha hisob raqamiga o'tkazilishi mumkin. Bunda, bitta kredit shartnomasi doirasida mijozning hisob raqamiga o'tkazilishi mumkin bo'lgan kredit mablag'lari miqdori 350,0 mln so'mdan oshmasligi lozim; 4) Ish haqi to'lovi uchun tranzit hisob raqam orqali plastik kartaga o'tkazish usulida
	qo'shimcha ma'lumotlar	Bank tomonidan aylanma mablag'larni to'ldirish maqsadida Mijozning talab qilib olinguncha hisobvaraqa'ga o'tkazilgan kredit mablag'laridan foydalanilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish yoki ko'rib chiqish talab etilmasada, mijoz ushbu mablag'lardan kreditning belgilangan maqsadiga qat'iy muvofiq foydalanilishini ta'minlashi lozim. Quyidagi holatlarda Bank kredit mablag'larining maqsadli ishlatilishini tekshirish huquqiga ega: - mijoz operatsiyalari bo'yicha shubhali harakatlar aniqlanganda; - kredit shartnomasi shartlari buzilganda yoki buzilish xavfi yuzaga kelganda; - Bankning ichki nazorat, risk-menejment yoki komplens talablariga muvofiq; - shuningdek, amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda

31	Kreditni o'zlashtirish muddati	Kredit shartnomasi tuzilgan kundan boshlab 60 bank ish kuni
32	Moliyalashtirish manbasi	Bank o'z mablag'i hamda jalb qilingan mablag'lar hisobidan
33	Imtiyozli davr	Imtiyozli davrsiz
	imtiyozli muddatning boshlanishi	Shartnoma imzolangan sanadan boshlab
34	Kreditni qaytarish usuli	Annuitet yoki differensial usulda
35	Kredit asosiy qarz to'lovini qaytarish tartibi	1) To'lov muddati kelgandan so'ng oyma-oy qaytarish sharti bilan; 2) Ish haqi to'lovi uchun kreditlarda esa kredit muddatining oxirida amalga oshiriladi
36	Muddatidan avval qaytarish	Muddatidan avval to'lash imkoniyati mavjud
37	Kreditlash jarayonida mijoz tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati	Amaldagi Kreditlash Nizomining 1-ilovasiga asosan amalga oshiriladi
38	Qo'shimcha shartlar	Boshqa tijorat banklaridan asosiy hisobvarag'i olib o'tilgan yoki ikkilamchi hisobvarag'i ochilgan mikro va kichik biznes subyektlariga kredit ajratilishi mumkin. Bankda hisobvara q ochilgan minimal muddat yoki xizmat ko'rsatishning minimal davri talab etilmaydi
	ish haqi to'lovi uchun	1) Yil yakuni bo'yicha mukofot (<i>13 oylik</i>) va oylik mukofotlar uchun kredit berilmaydi; 2) Xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanmaydigan idoralar, uyushmalar va boshqa korxonalar uchun kreditlar berish taqiqlanadi; 3) Ish haqiga beriladigan kreditlarning qaytarish muddatlarini uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi
39	Qaror qabul qilish vakolati	
	qaror qabul qiluvchi	Anderrayting
	qaror qabul qilish turi	Markazlashgan
	qaror qabul qilish usuli	Anderrayterlar xulosasiga asosan
40	Risklar bo'yicha cheklovlar	Risklarni tahlil qilish va modellashtirish direksiyasi tomonidan belgilanadi
41	Risk mezonlari (so'rovnomalar)	Risklarni tahlil qilish va modellashtirish direksiyasi tomonidan belgilanadi
42	Monitoring	Amaldagi Kredit siyosati va Kreditlash Nizomi asosida amalga oshiriladi
43	Kreditlarni undirilishi	Amaldagi Kredit siyosati va Kreditlash Nizomi asosida amalga oshiriladi
44	Kreditlash tartibi	Amaldagi Kredit siyosati va Kreditlash Nizomi asosida amalga oshiriladi
45	Mahsulotga e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihatlar	1) Ushbu kredit mahsulotidan revolver kreditlar ajratish ko'zda tutilmagan; 2) Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi kompensatsiyalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi